

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA BADIY ASARLARNING O'RNI

Vaxobova Xosilaxon Xoshimovna

Samarqand davlat chet tillari instituti 2 bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: N.N.Zubaydova, Sh.O.Mamayoqubova

nzubaydova@bk.ru mamayoqubovashahlo@gmail.com

hosilaxonimvahobova@gmail.com

Annotatsiya: *Tillarni samarali hamda qulay bo'lgan usulda o'rganish har bir soha vakillari uchun, shuningdek yosh o'rganuvchilar uchun ham juda muhim xisoblanadi. Badiy adabiyotlarni o'qib tahlil qilish til ihlosmandlariga eng maroqli hobby metodika bo'lishi qayta qayta o'z isbotini topgan. Shu boisdan badiy asarlarning til o'rganishda yaratadigan qulayliklari quyidagi maqolada berib o'tilgan.*

Annotation: *Learning languages with efficiently and easy methods are very essential for workers and every professions, especially young learners. Novels chritisizing benefits has proven many times and showed advantageous parts to its users who are considered reading novels as a best hobby. That is why benefits and useful sides of reading novels are given in this article.*

Kalit so'zlar: *badiy asarlar, xorijiy tillar, milliy sertifikatlar, xalqaro sertifikatlar, metodika, tarjimon, grammatika qoidalar, manodosh so'zlar, idiomatic expression, fe'l birikmalari.*

Key words: *foreign languages, literary novels, national certificate, methods, translator, grammar rules, synonym words, idiomatic expression, phrasal verbs*

Bugungi kunda ko'p tillarni bilish va ulardan to'laqonli foydalana olish jamiyatdagi har bir soha vakillari uchun muhim omil bo'lib kelmoqda, Xususan, adiblar, adabiyotshunoslar, meditsina xodimlari va tadbir korlarni biz shular jumlasiga qo'shishimiz mumkin. Hozirgi tez o'zgarib, o'sib borayotgan dunyomizda o'rganib tugatib bo'lmas ilmlar bor va xar bir soha egalari o'zlarining kasblariga oid bo'lgan bilim va egallashlari kerak bo'lgan ko'nikmalarni barchasini bilvosita til o'rganish orqali bilishlari mumkin. Har bir til o'ziga xos jihati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Xuddi bizning tilda bo'lgani kabi boshqa tillar ham o'zida xalqning o'tmishini aks ettiradi. Til o'rganishning afzalliklarini uni mukammal o'zlashtirmaguningizcha bilolmaysiz. Xorijiy tilni o'rganish asnosida o'sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishasiz. Bu til o'rganishni boshlagan ilk kunlaringizdanoq sezilmaydi, ammo uni yaxshi va mukammal egallaganingiz sari hayot yanada yorqin va rang-barang ekanligiga amin bo'lasiz. Zamonaviy psixologiya fani chet tilini o'rganish inson xarakterini ham qisman o'zgartiradi, degan fikrni ilgari surmoqda.

Ziyo.com 24 october 2013 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganish ommalashtirish faoliyatini sifatini jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida 2021 yil 19 maydagi PQ 5117 son qaroriga muvofiq, shuningdek xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha chora tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar mahkamasining qarori. " Xorijiy tillarni

o'qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlari ko'lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. Shuningdek, Vazirlar va idoralar xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar darajalari o'rtasidagi muvofiqlik jadvali asosida tizimlardagi xodimlarga ustamalar belgilash uchun har yili o'ziga taalluqli bo'lgan sertifikatlarni tasdiqlaydi. Soha vakillari chet tillarini bilish va chet el adabiyotlarini mutolaa qilish orqali, yanada ko'proq va hech qanday kamchiliklarsiz kasbiy ilm mahoratlarini oshirishi va ushbu o'zlari erishgan til bilish salohiyatlari orqali ma'lum bir qimmatli ma'lumot- bilimlarni bo'xabar bo'lgan kasbdoshlariga, talaba oquvchilarga va yoki jamiyatning qaysidir bir bo'g'inida yashovchi fuqaroga yetkazishi mumkin. Fuqaro va keng miqyosdagi ma'lumot o'rtasida vositachilik yani tarjimonlik ham qilishlari mumkun bo'ladi, o'z navbatida. Eng avvalo biror bir tilni mukammal o'rganish uchun odatda har birimiz grammatika qoidalariga hamda lug'at, so'z boyliklariga bor e'tiborni qaratamiz. Albatta, bu to'g'ri, va to'g'ri bo'lgan bir qancha metodlardan biri hisoblanadi. Albatta Grammatika qoidalari va so'z boyliklarisiz hech kim o'z nutqini ravon va ifodali tarzda ommaga yetkazib bera olmaydi, Shu sababli har bir til o'rganayotgan shaxs barcha eshitish tushunish ko'nikmalari qatorida, o'qib mulohaza qilish, bo'yoqdor so'zlardan yozma va og'zaki nutqda ularning qo'shimcha manolarini yo'qotmagan holatda qo'llay olish, ushbu bo'yoqdor so'zlarni o'z o'rnida qo'llash uchun birinchi navbatda o'rganilayotgan tilning badiy adabiyoti va asarlari xazinasiga nazar tashlanadi va ular ustida shaxsiy izlanishlarini olib borishlari badiy adabiyotlarida mano qay tarzda, o'quvchiga yetkazilayotganini o'z tadqiqotlari orqali anglab olishlari mumkin. Bu orqali, albatta til o'rganayotgan shaxs yoki o'quvchi turli xildagi grammatika kitoblarida duch kelmagan yangi grammatika qoidalarini ko'rishlari va ularni qulaygina activate qilib olishlari, og'izaki hamda yozma nutqda doimiy qo'llashlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari ingliz tilida yozilgan badiy asarlar oquvchilarga so'zlarning ko'plab sinonimlarini o'rganishda yordam beradi, ko'plab darsliklarda topilishi qiyin bo'lgan so'zlar badiy asarlarda berib o'tiladi. Vaholanki bu bilan ular oquvchini ingliz tilida huddiki native odamdek o'ylashga turtki bo'ladi, nafaqat til va balki ong ham o'rganilayotgan til muhitiga kiradi. O'rganuvchilarni o'rganilayotgan til ichiga sho'ng'ib ketishiga turtki bo'ladi. Badiy asarlarda idiomatic expressionlar keng tarzda qo'llaniladi, biror o'rtacha qalinlikdagi yozilgan kitobni oqib tugatgach 3000 ta va undan ham ko'p yangi expressions o'rganish mumkin bo'ladi. Ingliz tilini o'rganishda biz ko'plab adabiyotlarni manfaatli deb ayta olamiz, xususan, o'sha hammamizga birdek mashhur "Harry Potter" badiy asari, ushbu asar til o'rganuvchilar uchun juda ham muvaffaqiyatli hisoblanadi, bunga albatta bir qancha sabablarimiz bor. Birinchidan, kitob katta xajimdagi so'z boyliklarini new words ni bizga tuhfa etadi. Va ularni gaplarda ifodalab ham ko'rsatadi. Ikkinchidan asar xilma xilligdagi diverse grammar patterns and tensesni taqdim etadi. Bundan tashqari asarda yuqorida ta'kidlanganidek katta xajimdagi idiomatic phrases ni qo'llanishini yani ushbu turdagi bizni ona tilimizda uchratish qiyin bo'lgan fe'lli birikmalarni ishlatilishini izohlab beradi, authentic manolarini ham mano chiqarish orqali o'rganib olamiz. Ingliz tilidagi authentic conversations orqali o'rganish bu o'quvchini aynan shunday gapirishga yo'naltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. lingopie.com Milena Quaresma. 2023 Aug 1
2. Journal of creative practices in language learning and teaching Volume 6, number 2, 2018. Rasha Nabeel Siaj and Muhammed A A Farrah
3. Lex.uz O'zbekiston Res, Prezident qarori. Toshkent sh. 2021-yil 19-may, PQ-5117-son.
4. Ziyο.com Gulgun Sultonova "Ma'rifat,, gazetasidan. 2013